

PYTHONDA O'ZGARUVCHILAR E'LON QILISH VA ULARNI TAHLILI

TATUFF talabasi: M.Qadamova

TATUFF talabasi: M.Ro'zaliyev

Annotatsiya: Pythonda o'zgaruvchilar. Biror ma'lumotni saqlash va uning ustida turli amallarni bajarish uchun bizga o'zgaruvchilar yordam beradi. O'zgaruvchining qiymati, o'z nomi bilan aytib turibdiki, o'zgarishi mumkin. Unda xohlagan qiymatni saqlash mumkin. O'zgaruvchilar kompyuter xotirasidagi joy bo'lib, u yerda siz biror ma'lumotni saqlaysiz.

Kalit so'z: Python, o'zgaruvchi, xotira, print, dasturlash, dasturlash tili, o'zgarmaslar.

O'zgaruvchining konstantadan farqi, o'zgaruvchiga dastur ishlashi davomida (*run time*) murojaat qilib, uning qiymatini o'zgartira olamiz. Konstantaga esa oldindan ma'lum bir qiymat beriladi va bu qiymatni o'zgartirib bo'lmaydi. Pythonda o'zgaruvchilar ularni qiymatlarini tenglashtirish bilan hosil qilinadi. O'zgaruvchilarning turini alohida e'lon qilish shart emas.

Pythonda barchasi avtomatik tarzda ishlaydi:

```
x = 5
```

```
y = "Salom dunyo"
```

O'zgaruvchilarni hosil qilish O'zgaruvchilar ma'lum bir turdagi qiymatni o'zida saqlovchi konteynerlardir. Boshqa dasturlash tillaridan farqli, Python o'zgaruvchilarni e'lon qilish uchun alohida buyruqqa ega emas. O'zgaruvchilar ularga qiymatni tenglashtirish orqali hosil qilinadi. Quyida biz 2 ta o'zgaruvchini 2 xil turdagi qiymatga biriktiramiz va ekranga chiqaramiz:

```
x = 5
```

```
y = "Python"
```

```
print(x)
```

```
print(y)
```

O'zgaruvchilarni qaysi turda ekanligini e'lon qilish shart emas. Buni Python avtomatik tarzda aniqlaydi. O'zgaruvchilarning turlarini kodning istalgan qismida o'zgartirish ham mumkin.

```
x = "Dastur"
```

```
x = 5
```

```
print(x)
```

Satrlı o'zgaruvchilar qo'shtirnoq yoki bittalik tirnoqlar ichiga yozilish bilan e'lon qilinishi mumkin:

```
x = "Dastur"
```

y = 'Dastur'

O'zgaruvchi nomlari O'zgaruvchilar harflar yoki so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. Ularni ifodalash uchun ayrim qoidalar mavjud:

- O'zgaruvchi nomi harf yoki tag chiziq bilan boshlanishi kerak;
- O'zgaruvchi nomi raqam bilan boshlanmasligi kerak;
- O'zgaruvchi nomi faqat harflar, raqamlar va tag chiziqdan iborat bo'lishi mumkin;
- O'zgaruvchi nomlari katta-kichik harflarni farqlaydi (ism, iSm, ISM – bular 3 xil o'zgaruvchilar);

- O'zgaruvchi nomi orasida bo'shliq (probel) bo'lmasligi kerak;

To'g'ri nomlangan o'zgaruvchilar:

```
myvar = "Python"
```

```
my_var = "Python"
```

```
_myvar = "Python"
```

```
myVar = "Python"
```

```
MYVAR = "Python"
```

```
myvar2 = "Python"
```

Noto'g'ri nomlangan o'zgaruvchilar:

```
2myvar = "Python"
```

```
my-var = "Python"
```

```
my var = "Python"
```

Bir nechta o'zgaruvchiga qiymat o'zlashtirish Pythonda bir nechta o'zgaruvchiga qiymatlarni bir qatorning o'zida o'zlashtirish mumkin:

```
x, y, z = "Olma", "Banan", "Nok"
```

```
print(x)
```

```
print(y)
```

```
print(z)
```

Va aksincha, bir qiymatni bir nechta o'zgaruvchiga o'zlashtirish ham mumkin:

```
x = y = z = "Meva"
```

```
print(x)
```

```
print(y)
```

```
print(z)
```

Foydanilgan adabiyotlar.

1. O. S. Rayimdjanova, M. Akbarova, & B. Ibrokhimova. (2022). THERMAL CONVERTER FOR HORIZONTAL WIND SPEED AND TEMPERATURE CONTROL. Oriental Journal of Technology and Engineering, 2(02), 14–20. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojte-02-02-03>
2. Tojiboev, I., Rayimjonova, O. S., Iskandarov, U. U., Makhammadjonov, A. G., & Tokhirova, S. G. (2022). ANALYSIS OF THE FLOW OF INFORMATION OF

THE PHYSICAL LEVEL OF INTERNET SERVICES IN MULTISERVICE NETWORKS OF TELECOMMUNICATIONS. *Мировая наука*, (3 (60)), 26-29.

3. Rayimjonova, O. S., Tillaboyev, M. G., & Xusanova, S. S. (2022). Underground water desalination device. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 59-63.
4. Abdikhalikovna, N. R., Sodikovna, R. O., Umarali, E. S., & G'anijonovich, T. M. (2022). Anomalous photovoltaic effect in dielectrics. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(06), 84-90.
5. TOJIBOEV, I., RAYIMJONOVA, O., ISKANDAROV, U., MAKHAMMADJONOV, A., & TOKHIROVA, S. МИРОВАЯ НАУКА. *МИРОВАЯ НАУКА Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития"*, (3), 26-29.